

Menejment Tizimini Takomillashtirish Tendensiyalari

O'rmonov Sherzodbek Usmonali o'g'li¹, Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon o'g'li²

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin tadbirkorlik faoliyatini yuritish va koxonalarni boshqarish usullari o'zgarib boshladi. Korporativ boshqaruv andozalarini joriy etishning iqtisodiy jihatlarini, aksiyadorlik jamiyatlar (AJ) boshqaruvining samarali tizimini shakllantirish, boshqaruvning tamoyillari, uni tuzishga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar e'tibor qaratilgan boshladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlay oladigan ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarini isloh qilish tajribasi shuni tasdiqlamoqdaki, ma'muriy - rejali iqtisodiyotdan xo'jalik yuritishning bozor modeliga uyg'un o'tishning muhim vositasi xususiy lashtirish va aksionerlashtirish bo'lib, bu haqiqiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga va xususiy lashtirilgan mulkni korporativ boshqarishning samarali usullarini joriy etishda moliyaviy menejment alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: menejment, boshqaruv, iqtisodiyot, bozor modeli, marketing, korporativ boshqaruv, raqobat, rivojlanish.

KIRISH

Moliyaviy menejment mazmuni uning mohiyatidan ancha keng tushuncha hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida qiymat qonuni tartibga soluvchi rol o'ynaydi va moliyaviy munosabatlar aksiyadorlik jamiyatlarida butun ishlab chiqarish jarayonini, jumladan, barcha iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Shu sababli moliyaviy boshqaruv aksiyadorlik jamiyatini boshqarish umumiy tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruv – foydani maksimal lashtirish bir vaqtning o'zida butun boshqaruv tizimining, jumladan, texnik-ishlab chiqarish boshqaruvining maqsadi hisoblanadi.

Menejment bir ilm sohasi sifatida fanlararo tarmoq bo'lib, unda iqtisod sotsiologiya, psixologiya, huquq, texnik va boshqa fanlarda erishilgan yutuqlar, shuningdek, boshqaruv san'ati tajribalari o'z ifodasini topadi. O'zbekistonda shakllanayotgan zamonaviy menejment - bu kompleks ravishdagi innovatsiya fani bo'lib, u bozor iqtisodiyotining shakllanishi, tadbirkorlikning rivojlanishi, muayyan shart- sharoitlar va raqobatga layoqatlilikning yaratilishi, iqtisodiy erkinlik hamda ma'suliyat asosida jismoniy hamda huquqiy shakllar faoliyatini jonlantirish uchun qulay zamin yaratilish bilan bir vaqtda dunyoga kelmoqda.

Menejment predmeti xo'jalik yuritishning barcha darajalarida boshqarishning qonunlari (qonuniyatlari), tamoyillari va munosabatlarini o'rganishdan iboratdir. Boshqaruv munosabatlari ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib turli iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, psixologik va boshqa ko'rinishlarda bo'ladi. Boshqaruv munosabatlari boshqaruv qo'l ostidagi xodimlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning murakkab majmuini ifodalaydi, demak, menejment, bu eng avvalo kishilarni boshqarishdir.

Bozor iqtisodiyotida turli mulkchilikka asoslangan minglab korxonalar faoliyatini tasavvurga sig'dirish qiyin emas. Korxonalar faoliyatini u yoki bu darajadagi boshqaruvni tashkil etish, shu korxonalar rahbarining boshqaruv qobiliyatiga bog'liq. Uning qobiliyati esa menejment sohasidagi bilimlarni qanchalik darajada egallanganligi bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan menejment so'zi bizning hayotimizda bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq kirib kelgan so'zlar qatoridan joy oldi.

Menejment inglizcha («management») so'z bo'lib, u o'zbek tilida - boshqarishni idora qilish, tashkil etish, rahbarlik qilish ma'nolarini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida korxonalar boshqarish shakli hisoblanadi. Menejment inson hayotidagi iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni ishbilarmonlik asosida tashkil etish hamda boshqarishni bildiradi.

Inglizcha «menejment» so'zi, boshqaruv degan ma'noni anglatadi-da, dastlab asov otlarni tushovlash ma'nosini bildirgan. Keyinchalik bu atama ikki gildirakli aravaga nisbatan qo'llanila boshlangan. Bugungi kunda esa gap odamlarni, jamoalarini boshqarish xususida boryapti. Bu o'rinda odamlar mehnati, xohish irodasidan foydalanib mo'ljaldagi maqsadlarga erishish tushuniladi. Lekin menejmentni faqat odamlarni boshqarish jarayoni deb tushunmaslik kerak. Ingliz tilida «Menejment» so'zining ma'nosi nihoyatda murakkab. Ingliz tilining fundamental Oksford lug'atida bu so'zning quyidagi talqinlarini uchratish mumkin:

1. odamlar bilan muomala qilish usuli, tarzi;
2. xokimiyat va boshqaruv san'ati;
3. ishbilarmonlikning o'ziga xos turi;

¹ Andijon Mashinasozlik Instituti, assistenti

² Farg'ona Politexnika Instituti, assistenti

4. ma'muriy vazifa.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy menejmentni o'rganishda olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjuddir. A.D. Sheremet, A.F. Ionovalarning fikricha, moliyaviy menejment bu – pul aylanmasini, Aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanishni boshqarish jarayonidir.

A.N Gavrilovaning aytishicha, moliyaviy menejment bu – tijorat Aksiyadorlik jamiyati moliyasini boshqarish tizimi bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruvning yangi tamoyillari, shakllari, strukturalari va usullarini doimiy joriy qilish yo'li bilan moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga yo'naltiriladi³.

Y.I. Shoxina moliyaviy menejment- bu pul fondlari va aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy mablag'larini samarali boshqarish orqali o'z oldiga quygan strategik maqsadlarni va taktik masalalarni yechishni o'rganadigan fandır deb tarif beradi⁴.

S.V. Galiskaya talqinida moliyaviy menejment-bu korxonalar aktivlarini va ularni shakllantirish manbalarini boshqarish deb ta'riflanadi⁵.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy menejment bu – moliyaviy resurslarning eng ratsional manbalarini jalb qilish va ulardan aksiyadorlik jamiyatlarining strategik va taktik maqsadlariga erishish uchun eng katta samaradorlik bilan foydalangan holda aksiyadorlik jamiyatlari pul oqimlarini boshqarish fani va san'atidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoni, har qanday boshqaruv qarorlari qabul qilish kabi, uchta bosqichan iborat bo'ladi.

Qarorlarning har bir turi o'ziga xos axborot va tahliliy ta'minotni talab qiladi. Bashorat va reja qarorlari istiqbolli, trend tahlili usullarini qo'llagan holda qator yillar yoki choraklar uchun umumlashtirilgan buxgalteriya hisobotiga asoslanadi. Xo'jalik faoliyatining borishini tartibga soluvchi qarorlar tezkor tahlil usullarini qo'llagan holda tezkor, jumladan, buxgalteriya axborotiga asoslanadi. Baholash va nazorat qarorlari retrospektiv, joriy tahlil usullarini qo'llab, joriy hisobot davri bo'yicha amaldagi va reja (bashorat) ma'lumotlarini taqqoslashga asoslanadi⁶.

Zamonaviy moliyaviy menejment mazmuni moliyaviy tahlil usullarini chuqurlashtirish va O'zbekiston Respublikasining bozor sharoitlariga o'tishi bilan bog'liq yangi muammolarni hal qilish bilan tavsiflanadi. Bunday muammolar, masalan, daromad va kapitalni diskontlash, kapital narxini aniqlash yordamida kapital strukturasi boshqarish, iqtisodiy diagnostika usullaridan foydalana bilish, moliyaviy risklarni boshqarish, moliyaviy dastak samarasi va b. hisoblanadi. Ularni amaliy boshqaruvda hal qilish aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy menejment aksiyadorlik jamiyati umumiy boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va u, o'z navbatida, moliyaviy resurslar harakati va harakat davomida vujudga keladigan moliyaviy resurslarni shakllantirishni o'z ichiga oladigan aksiyadorlik jamiyatlari xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish jarayonini oqilona boshqarish tizimini ifodalaydi. Bundan kelib chiqib, moliyaviy menejmentni kapitaldan oqilona va samarali foydalanish tizimi sifatida, kapital hajmini oshirish, investitsiyalar o'sishi va moliyaviy resurslar o'sishiga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar harakatini boshqarish mexanizmi sifatida tavsiflash mumkin. Moliyaviy menejment ularning samaradorligi aylandirish tezligi (muomala tezligi) bilan tavsiflanadigan moliyaviy resurslarning normal muomala jarayonini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning yangi murakkab bosqichi strategik va taktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan aksiyadorlik jamiyat moliyasini boshqarish fani sifatida moliyaviy menejmentni o'qitish ehtiyojini vujudga keltirdi.

Moliyaviy menejmentning ustuvor maqsadi mulk egasining iqtisodiy samaradorligini maksimal qilishdan iborat. Bu maqsadga erishish mexanizmlari samarali dividend va investitsiya siyosati, aksiyadorlik jamiyatning kredit siyosati, yetarli likvidlik va optimal aylanma kapital siyosati, soliqqa tortiladigan bazani optimal shakllantirish siyosati yuritish hisoblanadi.

Moliyaviy menejmentning ikkinchi maqsadi ustuvor maqsadni to'ldirib turadi va aniqlashtiradi. Uning mohiyati aksiyadorlik jamiyatda mijozlar va kreditorlar, xo'jalik sub'ektlari bilan ushbu aksiyadorlik jamiyat biznesining rivojlanishiga xizmat qiladigan samarali ishbilarmonlik hamkorligini tashkil qilishdan iborat. Ishbilarmonlik hamkorligi samaradorligini ta'minlash mexanizmi tomonlarning munosabatlari bilan asoslanadi, quyilgan mablag'lar to'liq qaytarib berilishi va muddatliginazorat qilish, beriladigan kafolatlar, garov, ijara, tovar kreditlari, bank xizmatlari qarz asosiy summasi bo'yicha xizmat ko'rsatish samarali sxemasini tuzishdir. Obligatsiya zaemi shartlarini asoslab berish, moliyaviy dastak ijobiy samarasini ta'minlash va h.k. muhim rol o'ynaydi.

³ Гаврилова А.Н. и др. Финансовый менеджмент. Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2015. -111-114 с.

⁴ Е.И. Шохина. Финансовый менеджмент. Дарслик. М.: КНОРУС, 2010. - 27 б.

⁵ С.В. Галицкая. Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий: Учебное пособие. М.: Эксмо, 2009.-19 б.

⁶ Mulyadinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3), 35-43

Keyingi maqsadimiz bu – aksiyadorlik jamiyatimiz faoliyati ijtimoiy javobgarligini ta'minlashdan iboratdir. Aksiyadorlik jamiyatning ishbilarmonlik faolligi barqarorligi soliqqa tortish bazasini kengaytirish, bandlikning o'sishi, ishlab chiqarish vositalariga talabning ortishi, mamlakat ichida va uning hududidan tashqarida bozor munosabatlari qatnashchilari o'rtasida o'zaro bog'liqlikdagi va o'zaro aloqadagi tijorat munosabatlarini qo'llab-quvvatlash uchun yaxshi istiqbollar yaratadi. Iqtisodiy va moliyaviy o'sish, ijtimoiy rejalashtirish, inson kapitaliga investitsiyalar, potensial bankrot monitoringi va ishbilarmonlik qarorlari qabul qilishga ta'sir etuvchi ijtimoiy ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Menejment deganda, bozor sharoitida bozor iqtisodiyotini boshqarish tushuniladi, ya'ni:

- firmani bozorning talabi va ehtiyojiga, aniq talabgorlarning ehtiyojiga yo'naltirish va shu asosda firmaga mo'ljallanayotgan foydani keltiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkillashtirish;
- optimal natijalarga erishgan holda minimal harajatlar bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doim intilish;
- xo'jalik faoliyatining mustaqilligi;
- bozor holatini e'tiborga olgan holda maqsad va rejalarni doimiy takomillashtirish;
- bozorda, almashish jarayonida firmaning yoki uning xo'jalik faoliyati mustaqil bo'lgan bo'lim va qismlarning yakuniy natijasi namoyon bo'ladi;
- asoslangan va optimal qarorlarni qabul qilishda ko'p variantli hisob - kitoblarni amalga oshirish uchun hozirgi zamon ma'lumotlar bazasi va kompyuterlardan keng foydalanish.

Boshqarish so'zi keng ma'noda ishlatiladi, masalan: davlatni boshqarish, mashinani boshqarish, biron bir biologik jarayonni boshqarish va hokazo. Menejment so'zi esa asosan firma darajasida bozor sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda ishlatiladi. Menejment har hil mustaqillikka ega bo'lgan ishlovchilarni o'z ichiga birlashtiradi, ya'ni muhandislarni, loyihachilarni, iqtisodchilarni, statistlarni, psixologlarni, buxgalterlarni. Ana shularni hammasining faoliyatini menejer boshqaradi.

Menejer ishlayotgan firmaning kapitaliga mulkdorlikdan erkin, demak u firmaning aksiyasiga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin.

Menejmentning ta'rifini berganda firmaning xo'jalik faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiyotning ixtiyoriy tarmog'ida, ya'ni sanoat korxonalarida, bankda, transportda va h.k.
- firmaning ixtiyoriy faoliyat doirasida, ya'ni ishlab chiqarishda, ilmiy izlanishda, moliyada, ta'minotda va h.k.

Firma xo'jalik faoliyatining maqsadi ishlab chiqarish jarayonini kerakli bo'lgan hamma resurslar bilan ta'minlash va texnik davrni (siklni) tashkillashtirishdir, bu degani ilmiy izlanishlar natijalarini ishlab chiqarishga tadbik qilish, ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, mahsulotning sifat darajasini ko'tarish, tijorat ishlarini amalga oshirish, tovar harakati amallarini bajarish, har hil hisob- kitoblarni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini moddiy texnik ta'minlash, moliya resurslari bilan ta'minlash va boshqalar. Menejmentning asosiy masalalaridan biri - firmaning maqsadlarini yaqin yoki uzoq kelajakga, ya'ni istiqbolga mo'ljallash. Buning uchun firmaning imkoniyatini baholash va resurslar bilan ta'minlanganligini bilish zarur.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish jarayonida moliyaviy menejment maqsadlari o'zgaradi⁷.

Yuqorida aytib o'tilganidek, moliyaviy menejment maqsadi foydani maksimallashtirish hisoblanadi. Biroq aksiyadorlik jamiyatining bozor qiymatini maksimallashtirishga uning oladigan foyda miqdorini maksimallashtirish hisobiga doim ham avtomatik ravishda erishilmaydi. Masalan, olingan yuqori foyda joriy maqsadlarga to'liq sarflanishi mumkin, buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanish uchun o'z moliyaviy resurslarining asosiy manbasidan mahrum bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori foyda darajasi moliyaviy risk darajasi yuqori bo'lganda erishilishi, bu esa aksiyadorlik jamiyatlari bozor qiymati pasayishini asoslab berishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari quyidagilar sanaladi⁸:

- moddiy va pul oqimlari harakatining muvozanatlanishini ta'minlash;
- moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustaqillikka erishish;
- moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash – ichki va tashqi qisqa va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini izlab topish, o'z kapitali rentabelligini oshirish va moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradigan darajada bu manbalarni optimal birlashtirish;
- aksiyadorlik jamiyatlari strategik va taktik maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish.

⁷ Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1205-1209.

⁸ Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyasini boshqarish, yoki boshqacha qilib aytganda, moliyaviy menejmentning funksional vazifalarini quyidagi chizma ko'rishida aks ettirish mumkin

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, O'zbekistonda samarali menejment amaliyoti ob'ektiv iqtisodiy qiyinchiliklar, me'yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi, mutaxassislarni tayyorlash darajasi yetarli emasligi bilan bog'liq muammolarga duch kelib rivojlanish bosqichida turibdi. Zamonaviy iqtisodiyot uchun quyidagilar xarakterli hisoblanadi:

- xususiylashtirilgan aksiyadorlik jamiyatlari nizom kapitalidarajasining pastligi;
- moliyaviy resurslar qiymatining qimmatligi;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jalb etuvchanligi pastligi;
- fond bozori va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy menejment rivojlanishi iqtisodiyotidagi o'zgarishlar tendensiyalari va holatini ko'rib chiqish shunday xulosaga kelish imkonini beradiki, bu yo'nalish nafaqat ma'lum bir an'analarga, balki kelajakda yorqin istiqbolga ham ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гаврилова А.Н. и др. Финансовый менеджмент. Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2015. -111-114 с.
2. Е.И.Шохина. Финансовый менеджмент. Дарслик. М.: КНОРУС, 2010. - 27 б.
3. С.В.Галицкая. Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий: Учебное пособие. М.: Эксмо, 2009.-19 б.
4. А.Д. Шеремет, А.Ф.Ионова Финансы предприятий: менеджмент и анализ Учеб.пос. М: ИНФРА-М 2007 г. стр 36.
5. Nusratovich, S. H. (2019). The role of the food industry in the national economy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(10), 26-34.
6. Sabirov, K. N. (2021). Evaluation of the structural changes in production in the food industry. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1727-1737.
7. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1205-1209.
8. Горюнов, А. А., Мулайдинов, Ф. М., & Лазарева, М. В. (2018). Дистанционное образование как необходимое средство обучения в условиях современной экономики Узбекистана. In *Цифровой регион: опыт, компетенции, проекты* (pp. 122-125)
9. Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
10. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3), 35-43.
11. Farkhod, M. (2020). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02).